

**Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлиги**

Ш.Рашидов номидаги Самарканд давлат университети

Ўзбекистон География жамияти

Россия ижтимоий географлари ассоциацияси (АРГО)

Тожикистон География жамияти

Ўш давлат университети



**МАРКАЗИЙ ОСИЁ ВА ҚЎШНИ МИНТАҚАЛАРДАГИ
ТРАНСЧЕГАРАВИЙ ҲУДУДЛАР:
ҲАМКОРЛИК ИМКОНИЯТЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ**

Халқаро илмий-амалий конференция материаллари

I ҚИСМ

Самарқанд, 2022 йил 5-6 май

Самарқанд - 2022

ББК 26.8

Тахрир хайъати:

Равшанов А.Х., г.ф.ф.д. (PhD), доцент (масъул муҳаррир);
Аббасов С.Б., г.ф.д., профессор; **Кобиллов Э.Э.**, тиб.ф.д., профессор; **Усманов М.Р.**, г.ф.н., доцент; **Федорко В.Н.**, г.ф.ф.д. (PhD); **Хайдаров С.А.**, г.ф.ф.д. (PhD), доцент;
Ярашев Қ.С., г.ф.ф.д. (PhD), доцент; **Қурбонов Ш.Б.**, г.ф.ф.д. (PhD), доцент,
Мамажанов Р.И., г.ф.ф.д. (PhD).

Марказий Осиё ва қўшни минтақалардаги трансчегаравий ҳудудлар: ҳамкорлик имкониятлари ва муаммолари. I қисм. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари (Самарқанд, 2022 йил 5-6 май). – Самарқанд, 2022. – 237 б.

Тўпламда Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университетида 2022 йил 5-6 май кунлари бўлиб ўтган “Марказий Осиё ва қўшни минтақалардаги трансчегаравий ҳудудлар: ҳамкорлик имкониятлари ва муаммолари” Халқаро илмий-амалий конференция иштирокчиларининг илмий мақолалари чоп этилган. Конференция Ўзбекистон География жамияти, Россия ижтимоий географлари ассоциацияси (АРГО), Тожикистон География жамияти ва Ўш давлат университети билан ҳамкорликда ўтказилди. Мақолалар мавзулари трансчегаравий ҳудудларни тадқиқ этишнинг назария ва методикаси, трансчегаравий сув ва гидроэнергетика ресурсларидан оқилона фойдаланиш, трансчегаравий экологик муаммоларни ечиш ва табиатни муҳофаза қилиш, халқаро транспорт ва савдо-иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш, трансчегаравий ҳудудларда рекреация ва туризмни ривожлантириш, халқаро миграция жараёнлари ва уларни тартибга солиш, трансчегаравий ҳудудларни қаралатиришда замонавий ГАТ-технологиялардан фойдаланиш масалалари билан боғлиқ. Китоб географ-мутахассислар, талабалар, магистрантлар, докторантлар, ўқитувчилар, шунингдек, замонавий география фанига барча қизиқувчилар учун мўлжалланган.

орошаемых массивов и повышению уровня грунтовых вод. Углубление этих процессов может привести к падению эффективности производства и, соответственно, к угрозе продовольственной безопасности всего региона.

Во избежание водного конфликта, особенно при использовании трансграничных рек в Центральной Азии, необходимо разработать генеральный план использования водных ресурсов. Первым шагом на пути решения проблемы может стать сбор, анализ и обмен информацией по международным рекам. Подобный шаг может привлечь внимание исследователей и международных доноров для изучения проблемы. Необходимо создать Международную речную комиссию по центральноазиатским речным бассейнам (как в других регионах и странах, что было отмечено выше), развивать отношения между странами верховий и низовий, что приведет к соответствующему управлению водными ресурсами, а также эффективной охране окружающей средой бассейнов.

Использованная литература:

1. Водные ресурсы трансграничных рек. Алматы, 2005. 192 с.
2. Гидроэнергетические ресурсы Таджикской ССР. Л., Недра, 1965. 659 с.
3. Мухаббатов Х.М. Проблемы природопользования в горных регионах Таджикистана. Душанбе, 2015. – 465 с.
4. Мухаббатов Х.М., Яблоков А.А. Снежный покров Таджикистана. Душанбе: Ирфон, 2008
5. Обидов Ф.С. Ресурсный потенциал Республики Таджикистан. Душанбе, 2012. 95 с.
6. Региональное сотрудничество в бассейнах трансграничных рек. Душанбе, 2005. 118 с.
7. Стратегия развития водного сектора Таджикистана. Душанбе, 2006. 94 с.

Namozov J.A., Rajabov F.T.

TRANSCHEGARAVIY DARYO SUVLARI TAQSIMOTI TAMOIYILLARI VA UNING AHAMIYATI (ZARAFSHON DARYOSI MISOLIDA)

***Annotatsiya.** Maqolada transchegaraviy daryolar, ulardan foydalanishdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar haqida soʻz yuritilgan. Zarafshon daryosi misolida transchegaraviy daryolardan foydalanishning siyosiy huquqiy masalalari, uning oqibatlarini koʻrsatib oʻtilgan. Butun dunyo boʻyicha mazkur daryo suvlaridan foydalanish tamoyillari qiyosiy tahlil qilingan. Xulosa qismida daryo suvlaridan foydalanish masalasini siyosiy-huquqiy normalar yordamida hal qilish taklifi berilgan.*

***Kalit soʻzlar:** Zarafshon, transchegaraviy daryo, suv ombori, Mastchoh, Fandaryo, Oʻzbekiston, Tojikiston.*

Принципы распределения вод трансграничных рек и их значение (на примере реки Зарафшан)

***Аннотация.** В статье рассматриваются трансграничные реки и социально-экономические проблемы их использования. На примере реки Зарафшан иллюстрируются политико-правовые вопросы использования трансграничных рек и их последствия. Выполнен сравнительный анализ принципов использования воды этой реки в разных странах мира. В заключительной части предлагается решить вопрос использования речной воды с использованием политико-правовых норм.*


***Ключевые слова:** Зарафшан, трансграничная река, водохранилище, Матча, Фандарья, Узбекистан, Таджикистан.*

Principles of water distribution of the rivers and its significance (by the example of the Zarafshan river)

***Abstract.** The article discusses transboundary rivers and socio-economic problems of their use. The example of the Zarafshan River illustrates the political and legal issues of the use of transboundary rivers and their consequences. A comparative analysis of the principles of use of this river water around the world. In the concluding part, it is proposed to address the issue of river water use using political and legal norms.*

***Key words:** Zarafshan, transboundary river, reservoir, Mastchoh, Fandarya, Uzbekistan, Tajikistan.*

Transchegaraviy deganda bu ikki yoki undan ortiq mamlakat hududida oqib o'tadigan daryolar tushuniladi. Butun dunyoda birgalikda foydalanadigan 263 ta transchegaraviy daryolar havzasi mavjud bo'lib, kamida ikkita davlat foydalanadigan havzalar maydoni yer yuzasining uchdan ikki qismini tashkil qiladi va ular hududida dunyo aholisining beshdan ikki qismi joylashgan. Umuman olganda, jami mamlakatlarning 15 foizdan ortig'iga keladigan daryolar suvining yarmidan ko'prog'i qo'shni mamlakatlar hududida shakllanadi yoki oqib o'tadi. Misol uchun, Iroq, Sudan, Suriya, Misr, Paragvay, Niger, Kongo, Gambiya, Botsvana, va shuningdek Mavritaniya, Lyuksemburg, Ruminiya, Niderlandiya, Bolgariya xamda Vengriya davlatlarini suv resurslarining 2/3 qismi chegaradosh davlatlardan keladi. Bular qatoriga mamlakatimiz hududidan oqib o'tadigan Amudaryo, Sirdaryo bilan birgalikda Zarafshon daryolarini ham qo'shish mumkin.



1-rasm. Zafarshon daryosi vodiysining tabiiy xaritasi

Zarafshon O'zbekistonda, umuman O'rta Osiyoda ham sersuvligi bo'yicha uchinchi daryo bo'lib, bu jihatdan Amudaryo va Sirdaryodan keyingi o'rinda turadi. Daryoning umumiy uzunligi 877 km, havzasining maydoni 41860 km², shundan tog'li qismi 17710 km², qolgani tog' oldi va tekislik hududlariga to'g'ri keladi. Daryo Turkiston, Zarafshon va Oloy tog' tizmalari birikkan joy - Mastchoh (Ko'ksuv) tog' tugunidagi Zarafshon muzligidan Mastchoh nomi bilan boshlanadi (1-rasm). Boshlanish joyidan qariyb 189 km quyida, chapdan Fandaryo qo'shiladi va Zarafshon nomini oladi. Daryoga muzliklar va buloqlardan boshlanadigan 4200 ga yaqin irmoq quyiladi. Eng yiriklari - Fandaryo, Qo'shtutdaryo, Mag'iyondaryo. Daryo vodiysi yirik irmoqlar kelib qo'shiladigan joylardagina bir oz kengayadi. Zarafshon Rabotxoja to'g'oni yaqinida Tojikiston hududidan chiqib, O'zbekistan Respublikasi chegarasiga kiradi va Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlaridan oqib o'tadi. Samarqand shahri yaqinida (sharqroqda), Cho'ponota tepaligi yonida ikki tarmoqqa - Oqdaryo (o'ng) va Qoradaryo (chap)ga ajraladi. Ular Miyonqol orolini hosil kilib, Navoiy viloyati Xatirchi tumani markazi - Yangirabot shahri yaqinida birlashadi va yana Zarafshon nomi bilan oqadi. Suvining 70 - 75 foiz qismi Qoradaryo tarmog'iga tegishli. Bu oraliqda atrofdagi tog'lardan ko'plab soylar oqib tushadi, suvining ozligi va sug'orishga olinishi natijasida soylar Zarafshonning tarmoqlarigacha yetib kelmay qurib qoladi. Daryo Samarqand viloyatining asosiy qon tomiri (arteriyasi) bo'lib, suvining 90 foizdan ko'prog'i bevosita sug'orishga sarflanadi. Zarafshon suvi dehqonchilikdan tashqari, sanoatda, transportda va aholiga ichimlik suvi tariqasida ishlatiladi.

Viloyatning suv bilan ta'minlanishiga siyosiy omil ta'sir ko'rsatishini, Zarafshon daryosining qo'shni mamlakat hududidan boshlanishi bilan bog'lash mumkin. Ushbu daryo ham Amudaryoga o'xshab, baland tog' muzliklaridan boshlanadi, suvining eng to'lin davri yoz (iyun-avgust) oylariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, juda katta gidro energetika salohiyatiga ega. Mana shunday ulkan boylikdan yanada samarali foydalanish uchun, ushbu daryo havzasida bir necha suv omborlari va GESlar

bunyod etish loyihalari ishlab chiqilgan va chiqilmoqda (1-jadval). Daryoning yirik irmoqlari Mastchoh bilan Fandaryo bo'lib, ularning asosiy oqimi tog' hududlariga tog'ri keladi.

1-jadval

Zarafshon daryosida qurilishi rejalashtirilayotgan suv omborlarining taxminiy loyihasi

№	GES nomi	Suv ombor hajmi, mln m ³	O'rnatilgan quvvati, mVT	Yillik elektr-energiya ishlab chiqarish, kVT.soat
Mastchoh daryosida				
1	Oburdon	720	120	0,35
2	Darg	50	130	0,75
3	Sangiston	50	140	0,90
Fandaryoda				
4	Ayniy	50	160	0,95
5	Yavan	50	120	0,18
6	Dupulin	260	200	1,00
7	Panjikent-1	—	50	0,27
8	Panjikent-2	—	45	0,25
9	Panjikent-3	—	65	0,38

Manba: Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari. – Samarqand, 2020.

Mastchoh daryosi Zarafshonning boshlanadigan qismi, yana ham aniqrog'i uning manbai bo'lmish Mastchoh muzligidan suv olgach, dastlab shu nom bilan ataladi. Asosan baland tog' tizmalaridan oqib tushgani uchun, uning elektr-energetika zahirasi juda katta bo'lib, suv omborlaridan tashqari bir nechta kichik-kichik kaskadlar qurish ham ancha samarali. Ammo qo'shnilarimiz asosiy e'tiborni suv omborlari qurish va undan katta miqdorda foyda olishga qaratishgan. Jumladan, u yerda bitta yirik va ikkita kichikroq suv omborlarini qurish loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Uchta suv omborining barcha parametrlari ishlab chiqilib, loyiha deyarli tayyor holga keltirilgan. Birinchisi va eng asosiysi Oburdon suv ombori bo'lib, uning taxminiy hajmi 720 mln m³ni tashkil qiladi. Darg va Sangiston suv omborlari garchi kichik bo'lsa ham, ular elektr energiyasi olish imkoniyati ko'proq ekanligi bilan ahamiyatli. Mastchoh daryosiga garchi Fandaryoga nisbatan kamroq suv ombori qurilayotgan bo'lsada, ularning barchasi to'liq loyihalashtirilgan.

Daryoning ikkinchi yirik irmog'i Fandaryoda esa ko'proq, ya'ni oltita suv ombori qurish rejalashtirilgan. Bu suv omborlari ikkita kichik guruhlariga bo'linadi va ularning har birida uchtdan suv ombori mavjud. Birinchi guruhga Ayniy, Yavan va Dupulin suv omborlari kirib, bularning ichida suvlarining hajmiga (260 mln m³) va energiya olish quvvatiga ko'ra (200 mVT) ko'ra Dupulin suv ombori ajralib turadi. Ayniy suv omborining hajmi Yavan bilan teng bo'lsada, elektr olish quvvati bo'yicha undan yuqoriroq ko'rsatkichga ega. Ikkinchi guruhdagilar, ya'ni Panjikent suv omborlarining faqatgina taxminiy elektr energiya olish quvvati ma'lum, xolos. Fandaryoda ham asosan uchta suv ombori qurish loyihasi tayyor, biroq uning energiya zahirasi Mastchoh daryosiga nisbatan yaxshiroq hisoblanadi.

Mazkur loyiha amalga oshirilsa, qo'shni respublika iqtisodiyoti, ayniqsa sanoati ancha rivojlanishi mumkin. Ammo buning natijasida nafaqat mamlakatimiz uchun, balki Tojikistonning o'zida xam bir qator muammolar vujudga kelishini taxmin kilish qiyin emas. Ularning asoslari quyidagilar:

1. Suv tanqisligi muammosi. To'qqizta suv omborining uchtasida hali kancha suv saqlanishi aniq bo'lmasada, qolgan oltitasi birgalikda 1180 mln m³ suvni ma'lum muddatga, yana ham aniqrog'i ular to'lganicha ushlab qoladi, yoki juda kam miqdorda suv o'tkaziladi. Demak daryo havzasida joylashgan yoki unga bog'langan mamlakatimizdagi barcha hududlar shuncha vaqt deyarli suvsiz qolishi mumkin. Ularning iqtisodiyoti asosan, agrar sohaga bog'langanini inobatga olsak, masalaning mohiyati naqadar chuqur ildizga ega ekanligini sezish qiyin emas. Bundan tashqari ushbu hududlarda baliqchilik va boshqa suv bilan bog'liq ayrim ishlab chiqarish sohalari ham yo'lga qo'yilgan.

2. Suv ko'chkisi xavfi. Suv omborlari qurilayotgan joylar, o'sayotgan yosh tog'lar bag'rida bo'lganligi uchun, bu yerlarning seysmik holati faol hududlardan hisoblanadi. Agar kuchli yer silkinishi natijasida birorta suv omborining to'g'oni buzilsa, katta miqdordagi suv dahshatli ko'chkini vujudga keltirishi xamda buning natijasida ikkala davlat ham anchagina zarar ko'rishi mumkin. Bundan xam yomoni esa uning atrofida istiqomat qiladigan aholi uchun talofat keltirib chiqaradi.

3. Ekologik muvozanatning buzilishi. Suv yetishmovchiligi natijasida daryo atrofidagi fauna va flora dunyosiga kuchli ta'sir qiladi. Bu esa tabiiy muvozanatni buzilishiga, atrof muhitni ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Uning qirg'og'ida yana Zarafshon to'qay qo'riqxonasining joylashgan bo'lib, bu yerning buguni va kelajagi 100 foiz daryo suvining miqdori va sifatiga bog'liq.

4. Iqtisodiy va ijtimoiy muammolar. Suv yetishmovchiligi oqibatida Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari iqtisodiyotini zarar ko'rishi va bu holat ishsizlikni kuchayishiga olib keladi. Yana aholi o'rtasida boshqa turli xil ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bularga eng avvalo chuchuk suv va oziq - ovqat yetishmovchiligi hamda suvning (ayniqsa ichimlik suvining) sifati yomonlashishi natijasida turli kasalliklarni tarqalishi va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Suvdan teng huquqli foydalanish bo'yicha O'zbekiston BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan 1992 yilda qabul qilingan "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish konvensiyasiga" a'zo bo'lgan. Unga ko'ra daryo bo'yida joylashgan barcha davlatlarning o'z limitiga mavjud bo'lib, taqsimotning quyidagi tamoyillari asosida daryo suvidan foydalanadir.

1. Davlatlarning hududiga proporsional ravishda. Ya'ni qaysi davlat maydoni yirikroq bo'lsa, suvning katta qismi unga berilishidir. O'zbekiston maydoni 448,9 ming km² bo'lib, Tojikistondan (143,1 ming km²) uch marta kattadir.

2. Sug'oriladigan yerlarga. Sug'oriladigan yerlar maydoni hisobiga ko'ra suv taqsimoti. Mazkur tamoyil haqiqatga ancha yaqin bo'lib, suv resurslari taqsimotida, unga bo'lgan ehtiyoj birlamchi bo'lishi kerak. Holbuki, bu borada ham O'zbekiston ko'proq (4,2 mln ga) sug'oriladigan yerlarga ega.

3. Jami aholi soniga. Ushbu tamoyilni ham asosiylari qatoriga qo'shish mumkin. Chunki daryo suvlari nafaqat qishloq xo'jaligi, balki aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan birdan – bir suv manbaidir. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi aholisi qo'shni davlat aholi sonidan deyarli 4 marta ko'proq.

4. Tarixiy shakllanganlik holati. Bunda daryo joylashgan hudud o'tmishda qaysi davlatga ko'proq qarashli bo'lganligi inobatga olinadi. Bizga ma'lumki 1924 yilgacha ikkalasi yagona davlat bo'lishgan. Shu yili Tojikiston O'zbekiston tarkibida bo'lib, 1929 yilda alohida mamlakat sifatida tashkil qilingan va mamlakatimiz tarkibidan chiqarilgan.

5. Talab va taklif. Mazkur tamoyilga suvga bo'lgan ehtiyoj, ulardan foydalanishdagi diplomatik munosabatlar kiradi. Ya'ni avval daryo suvi ularga bo'lgan talab hamda ehtiyojni hisobga olgan holda, ikki davlatga teng taqsimlash, undan so'ng, limitdan ortgani ma'lum xizmat yoki mablag' uchun taklif qilinishidir. Bizningcha asosiy masalalardan biri mana shu bo'lib, qo'shni davlat bilan ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish maqsadga erishishni osonlashtirishga xizmat qilishi mumkin.

6. Teng huquqlilik. Umumiy qoidalarga muvofiq, daryo suvlaridan uning qirg'og'ida joylashgan davlatlar birgalikda foydalanish huquqiga ega. Bundan tashqari, daryo suvlarini ishlatishda ikki tomonning ham huquqlari bilan birgalikda majburiyatlari teng bo'lishi, daryo bilan bog'liq masalalarni birgalikda hal qilishi lozim. Hozirga vaqtda esa ushbu muammo siyosiy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun, hal qilish ancha murakkabdek tuyulmoqda. Mazkur masalani ijobiy hal qilish uchun, bizningcha Zarafshon daryosi muammolari bilan shug'ullanadigan alohida tashkilot tuzilib, faoliyatini erkin (hech qanday siyosiy aralashuvlarsiz) olib borishi uchun qulay sharoit yaratib berish kerak.

7. Suv resurslarining tabiiy-geografik shakllanishi. Daryoning qaysi tabiiy geografik o'lkada hosil bo'lishi, ko'payishi va oqib o'tishi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Zarafshon daryosi havzasi va uning ta'sir zonasida shu nomdagi tabiiy geografik rayon shakllangan bo'lib, uning yuqori qismi Tojikiston, o'rta va quyi qismlari O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan.

Mazkur tamoyillarga amal qilish holati turli iqtisodiy, siyosiy vaziyatlarga bog'liq holda o'zgarib turishi mumkin. Agar shunga o'xshash muammo yuzaga keladigan bo'lsa, uni hal qilishning quyidagi yo'llaridan mavjud.

1. Siyosiy diplomatik. Bu ikki davlat tarixi bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lib, ular aholisi o'rtasida azaldan o'zaro aloqalar mavjud. Mazkur jihat masalani diplomatik, o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

2. Huquqiy. Daryo suvlaridan foydalanishni ma'lum bir meyoriy hujjatlar orqali tartibga solish. Suvdan teng huquqli foydalanish bo'yicha O'zbekiston BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan 1992 yilda qabul qilingan "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish konvensiyasiga" a'zo bo'lgan. Unga ko'ra daryo bo'yida joylashgan barcha

davlatlar, uning suvlaridan foydalanishda o'z limitiga ega. Bundan tashqari 2002 yilda Dushanbeda suvdan foydalanish bo'yicha ikki davlat o'rtasida deklaratsiya qabul qilingan. Mazkur hujjatlar Zarafshon daryosidan foydalanishdagi siyosiy muammolarni hal qilishda huquqiy ko'makchi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari yuqorida ta'kidlab o'tilgan daryo suvlari taqsimotining asosiy tamoyillariga amal qilish orqali ushbu masalani ijobiy hal qilish mumkin.

Нигматов А.Н.

ЯГОНА МИНТАҚАВИЙ ГЕОГРАФИК ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ – ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРНИ ҲАЛ ҚИЛИШНИНГ САМАРАЛИ ВОСИТАСИ

Аннотация. Мақолада Марказий Осиё ва Афғонистон, яъни Ўрта Осиёда трансчегаравий муаммоларни ҳал қилишда узвий боғланган 5 та чора-тадбирларни босқичма-босқич амалга ошириш учун «Ягона минтақавий географик таълим ва тарбия»ни яратиш масаласи кўриб чиқилган. Унда минтақа давлатлари мутахассисларидан иборат бўлган ишчи гуруҳ ва «Ўрта Осиё географик жамияти»ни яратиш, тегишли концепция, йўл харитаси, ягона стандарт асосида ўқув ва тарбия курслари, кадрлар тайёрлаш дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишни назарда тутди.

Калит сўзлар: Ўрта Осиё, географик таълим ва тарбия, босқичлар, ишчи гуруҳ, концепция, йўл харитаси, кадрлар тайёрлаш, география жамияти.

Единая региональная система географического образования и воспитания – эффективное средство решения трансграничных проблем

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы создания единой региональной системы географического образования и воспитания путем поэтапной реализации пяти взаимосвязанных мер для решения трансграничных проблем географического характера в Центральной Азии и Афганистане, т.е. в Средней Азии. Оно предусматривает создание рабочей группы и «Среднеазиатского географического общества» с привлечением специалистов из государств региона для разработки и внедрения концепции, дорожной карты, учебных и воспитательных курсов, программ по подготовке кадров.

Ключевые слова: Средняя Азия, географическое образование и воспитание, этапы, рабочая группа, концепция, дорожная карта, подготовка кадров, географическое общество.

A unified regional system of geographical education and upbringing is an effective means of solving cross-border problems

Abstract. The article deals with the creation of a "Unified Regional Geographic Education and Upbringing" through the phased implementation of 5 interrelated measures to solve cross-border problems of a geographical nature in Central Asia and Afghanistan, i.e. in Central Asia. It provides for the creation of a working group and the "Central Asian Geographical Society" with the involvement of specialists from the states of the region to develop and implement the concept, roadmap, educational and educational courses, and training programs.

Key words: Central Asia, geographical education and upbringing, stages, working group, concept, road map, training, geographical society.

Марказий Осиёдаги трансчегаравий географик муаммоларнинг кўлами ва оқибатларидан барчамиз хабардормиз. Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, бу муаммолар миллий чегаралар доирасида амалга ошириладиган маҳаллий ҳаракатлар билан ҳал этишга ҳаракат қилинмоқда [6]. Шунинг учун ҳам янгидан янги минтақавий миқёсда барқарор ривожланишнинг трансчегаравий таҳдидлари юзага келмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти, юртбошимиз Шовкат Мирзиёев 2020 йил 23 сентябр куни Нью-Йоркда БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясида сўзлаган нутқида «Биз хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидаги умумий хатарларга қарши янгича ёндашувлар асосида ва яқин ҳамкорликда ишлашимиз зарур. Биз Афғонистонни Марказий Осиёнинг ажралмас қисми сифатида қабул қиламиз. 2018 йил март ойида ўтказилган Афғонистон бўйича олий даражадаги Тошкент конференцияси афғон муаммосини ечилиш учун халқаро ҳамжамият саъй-ҳаракатларини сафарбар этишда янги босқич бўлди», деб таъкидлаган эди [1]. Шу муносабат билан 2022-2026 йилларда Марказий Осиёда, шу жумладан Афғонистонда (бундан буён матнда табиий географик нуктаи назардан «Ўрта Осиё» деб юритилади 1-расм.)

Мирзахмедов И.К., Бақоева Д.Х. Трансгегаравий арид худудларининг геозкологик холати ва уларни рекултивациялаш.....	192
Мирзеханова З.Г. Туризм в приграничных городах: новые решения, основные тренды посткризисного периода.....	193
Муртазаев У.И. Некоторые аспекты управления трансграничными водными ресурсами в Центральноазиатском регионе.....	197
Мухаббатов Х.М., Самиев А.М. Пути рационального использования трансграничных вод в Центральной Азии.....	201
Намозов Ж.А., Ражабов Ф.Т. Transchegaraviy daryo suvlari taqsimoti tamoyillari va uning ahamiyati (Zarafshon daryosi misolida)	203
Нигматов А.Н. Ягона минтакавий географик таълим ва тарбия – трансгегаравий муаммоларни ҳал қилишнинг самарали воситаси.....	207
Низамиев А.Г., Айтыкулова Б.М., Момошева Г.А. Туризм в южном регионе Кыргызстана и его возможности в развитии трансграничного туризма в Ферганской долине.....	212
Низомов А., Сафаров. У.Х. Ҳисор ва Кўхитанг трансгегаравий тоғ тизмалари шарқий ёнбағри қисми карст булоқлари географияси.....	217
Нишонов Б.Э. Усовершенствование и гармонизация нормативной базы мониторинга качества поверхностных вод.....	220
Нурланова Н.К. Проблемы депрессивных приграничных территорий Казахстана и пути их решения.....	224
Сведения об авторах.....	229